13. أدتنم ةذتاسأب ةيتامول عمل. URL: <https://www.informatiquecem.com/form/index.php?threads/%D8%A7%D9%84%D8%AC%D9%85%D9%84-%D8%A7%D9%84%D8%AE%D8%A8%D8%B1%D9%8A%D8%A9-%D9%88%D8%A7%D9%84%D8%AC%D9%85%D9%84-%D8%A7%D9%84%D8%A5%D9%86%D8%B4%D8%A7%D8%A6%D9%8A%D8%A9-%D9%88%D8%A7%D9%84%D8%A3%D8%BA%D8%B1%D8%A7%D8%B6-%D8%B4%D8%B1%D8%AD.495/> (дата обращения: 24.12.2019)



СПЕЦИФИКА АРАБСКОГО ГАЗЕТНОГО ЗАГОЛОВКА КАК ЯЗЫКОВОЙ ЕДИНИЦЫ И ЕГО ТИПЫ

Рахмтова Камола

ТГУВ, 1курс, Лингвистика (арабский язык)
+998974029229

Научный руководитель: доц. Муталова Г.С.

Аннотация: В статье затрагивается специфика арабского газетного заголовка как языковой единицы. Также здесь представлены их типы в зависимости от различных выполняемых ими функций.

Ключевые слова: газетный заголовок, арабский язык, типы заглавий, функция газетного заголовка.

Лингвисты-исследователи всегда размышляли над особенностями заголовка как определенного явления речи. Существует несколько точек зрения, которых они придерживаются в своих исследованиях о лингвистической сущности заголовка.

Одна из этих точек зрения гласит, что заголовок не может иметь статуса предложения, и что предложением может быть языковая единица, имеющая соответствие себе в живой речи. Этой точки зрения придерживался А. А. Шахматов. Он говорил, что заглавия, вывески и тому подобные вещи не могут удовлетворять этому требованию, поэтому их следует исключить из синтаксического исследования.

По мнению Н. Е. Бахарева, только те заголовки, которые представляют собой двусоставные и односоставные структуры глагольного типа могут считаться заголовками. Он считает, что основным признаком предложения – это наличие в нем глагола.

На сегодняшний день очень многие исследователи в области лингвистики и журналистики предлагают самые разнообразные классификации газетных заголовков, учитывая различные факторы.

Прежде всего, они выделяют три основных требования к заголовку:

1) информативность. Заголовок должен отражать основную идею статьи и содержать информацию о ней;

2) соответствие содержанию;

3) обладать выразительностью.

Э. А. Лазарева подразделяет заголовки по информативной функции на

однонаправленные и комплексные. В однонаправленных заглавиях тема текста входит в состав его основной мысли, он соотносится с одним элементом смысловой структуры текста. В комплексных заголовках происходит соотношение сразу нескольких структурных элементов текста. Из этого мы можем сделать вывод, что степень информативности комплексных заголовков выше.

Через заглавия передается усложненная информация, связь заглавий с текстом многообразна. За счет этого повышается выразительность текста. Часто в заголовках используется цитата, пословица или поговорка, известное выражение, относящееся или подходящее к содержанию текста. Многие ученые-исследователи, такие как В. Г. Костомаров, М. Шостак, Г. Я. Солганик, Е. А. Земская заметили значительное увеличение иронии и языковой игры. С ее помощью через омонимы и паронимы создаются каламбуры, используются цитаты, парадоксы, аллегории, смысловые контрасты, намеренное нарушение грамматических норм обыгрываются различными способами имена и фамилии.

Также важным аспектом при анализе заголовков признается соответствие их содержанию. По мнению Э. А. Лазаревой неясность или двусмысленность заголовка, а также его противоречие содержанию текста, приводят к возникновению ошибочных связей между заголовком и текстом.

Вопросы, связанные с выразительностью заголовков, анализируются через их грамматическое построение.

Арабские исследователи-лингвисты, среди которых Шуайб Халифи, Мухаммад Фикри, Джамиль Хамдауи выделяют несколько классификаций заголовков по различным параметрам



По их мнению, исходя из содержания текста, заголовки разделяются на заголовки-индикаторы и заголовки-указатели. Цель первого вида – помочь читателю найти нужное произведение среди остальных. Такие заголовки бывают короткими, состоящими из одного слова или выражения. Они нейтрально окрашены, читатель не может догадаться, о чем пойдет речь в произведении. Цель второго вида заголовков – дать сжатую информацию или намек читателю на содержание текста. Здесь можно сказать, что слова заголовка свидетельствуют о подробностях рассказа.

Доктор Иса Аль-Хасан упоминает 5 основных форм газетных заголовков в зависимости от расположения строк в заголовке и самого заголовка на странице: 1) Отдельно стоящий заголовок. Он располагается по всей ширине строки.

Например: نايبرع نابش 30 مه آيل سبروف تاميك يف حالص

2) Форма перевернутой пирамиды. Состоит из двух, трех или четырех строк, уменьшающихся в своей длине. Они все располагаются в середине строки. Например: سارلا هي مدخ و ةيوامونت تا عورش م ونيش ادوي دسال

قري نوي لم 9 تافل كب ي حصل ا دمل

قري نوي لم 130 تافل كب لتفلا افشم

3) Форма лестницы. Состоит из двух, трех или четырех строк одного размера, спускающихся вниз подобно лестнице. Например:

ايل اطي «ini» ةكيش ريش ريثي يزي سا

كت يل اجم يف ةدي دجل ت افاش ت كال هلضفتن ,

ةق عا ط يل اجم يف هدي عو سارف مو كيدل ,

4) Подвешенный заголовок. Состоит из двух, трех или четырех строк, самой длинной является первая строка, остальные равны между собой длиной чуть меньше газетного столбца. Например:

مويلا س أ ر يف ى دص يه تنرتنالا مي راج

ب ع ص افاش ت كا

اهيل ع قراتس تن اك

ةل يه اتسم

5) Заголовок, выровненный по одному краю. Состоит из двух, трех или четырех строк, все они начинаются с одного края, но имеют разную длину .

А. Тертычный в своей работе предлагает классификацию заголовков исходя из степени их сложности:

1) Простой заголовок. Это утвердительное, вопросительное или восклицательное простое предложение, которое содержит законченную мысль. Он встречается в коротких информационных сообщениях, целью которых является информирование читателя о том, что произошло;

2) Усложненный заголовок. Он состоит из нескольких самостоятельных, логически завершенных частей, которые представляют собой законченную мысль, утверждение или вопрос, которые являются важными для понимания сути данного материала;

3) Заголовочный комплекс. Он включает в себя заголовок и подзаголовки .

Некоторые исследователи, среди которых Г. С. Мельник, А. Н. Тепляшина, считают, что к таким комплексам относятся анонсы, рубрики, шапки, названия тематических полос и т.д.

По цели эмоционального воздействия на аудиторию они подразделяют заголовки на «интригующие», «страшные», «сногшибательные», «скандальные» и «интимные». Такие заголовки чаще всего используются в «желтой прессе».

Арабские исследователи в области журналистики разделяют газетный заголовок исходя из содержания материала на:

1) Новостной. Содержит в себе информацию о тексте, который он озаглавливает.

2) Сравнивающий. Представляет собой сравнение между различными мнениями, мыслями и утверждениями, делая предпочтение в пользу одного из них. Здесь дается некоторое описание подробностей, сталкиваются друг с другом две или более истин.

3) Заголовок-вопрос. Задается важный и насущный вопрос по актуальной теме. Не превышает объема одной строки.

4) Описывающий. Рисует картину в воображении читающего, которая описывает какой-



то факт. Здесь используются сильные по воздействию слова, подталкивающие к прочтению материала.

5) Остроумный. Используется при описании новостного происшествия, используя языковые средства, которые заинтересовывают читателя к ознакомлению с предлагаемым материалом.

6) Критикующий. Занимает определенную позицию. Часто используется в журналистских репортажах и расследованиях.

7) Заголовок, состоящий из пословицы или известного мудрого выражения. Смысл этой пословицы или выражения известен аудитории и полностью совпадает с содержанием статьи.

8) Заголовок-цитата. Берется цитата из заявления какого-либо ответственного лица или личности, с которым была проведена встреча. Также может включать в себя аяты из Священного Корана, подходящие по смыслу с содержанием материала.

Исследователь Рашид Абу Райян в своей работе по анализу состава заголовков выделяет следующие виды:

1) Простой. Состоит из одного слова.

2) Комбинированный. Состоит из двух и более слов. В свою очередь комбинированный подразделяется на:

- комбинированный именем прилагательным قداصل رچفلا

- комбинированный изафетным словосочетанием ناسنالا ق ح، رچفلا نارق

- комбинированный предикативной связью عفان مل عل

- комбинированный союзным соединением و مالس إل

Список литературы

1. Бахарев Н. Е. Структурно-функциональное развитие заголовков (на материале заголовков из газет и журналов за 1903–1907, 1935–1939, 1965–1970 гг.): дис. ... канд. филол. наук. Алма-Ата, 1971. 222 с.

2. Лазарева Э. А. Заголовок в газете. Свердловск: Изд-во Уральского ун-та, 1989. 28 с.

3. Мельник Г. С., Тепляшина А. Н. Основы творческой деятельности журналиста. СПб.: Питер, 2008. 98 с.

4. Попов А. С. Синтаксическая структура современных газетных заглавий и ее развитие // Развитие синтаксиса современного русского языка. М.: Наука, 1966. С. 95–126.

5. Рашид Абу Райян [Электронный ресурс]. – URL: http://www.ar4coll.com/2011/10/blog-post_21.html. (дата обращения: 05.03.2018)

6. Тертычный А. Заголовок – слово главное [Электронный ресурс] // Журналист. 2004. No 1. URL: <http://old.journalist-virt.ru/mag.php?s=200401801>. (дата обращения: 05.03.2018)

7. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып. 1–2. Л.: Госиздат, 1925– 1927. 212 с.



О‘ЗБЕК HUJJATCHILIGINING TILI VA USLUB XUSUSIYATLARI

Qurbonova Nigora Nabiyeвна

Farg‘ona viloyati Yuridik texnikumi
o‘qituvchisi 3-darajali yurist

Annotatsiya: maqolada o‘zbek hujjatchiligini o‘ziga xosliklari, hujjatlarni rasmiylashtirishdagi qonuniyatlar xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: hujjatlar, hujjat tili, hujjat uslubi, rasmiy hujjatlar.

O‘zbek hujjatchiligini shakllantirish va takomillashtirishdagi eng muhim va dolzarb masalalaridan biri hujjatlarning tili va uslubi masalasidir. Hujjat tayyorlash va rasmiylashtirishda eng avvalo o‘zbek tilining barcha asosiy qonuniyatlari va qoidalarini ma’lum darajada tasavvur etish zarur. Har bir rahbar, boshqaruv muassasalarining xodimlari, umuman, faoliyati munshiylik bilan bog‘liq har bir kishi o‘zbek tilining imlosini, tinish belgilari va uslubiy qoidalarini egallagan bo‘lishi kerak. Busiz bugungi taraqqiyotimiz talablariga javob beradigan aniq, lo‘nda va teran mantiqli hujjatchilikni yaratib bo‘lmaydi. Hisob-kitoblarga qaraganda, boshqaruv sohasidagi xizmatchilar o‘z ish vaqtlarining 80 foizcha qismini hujjatlashtirish ishiga sarflar ekanlar. Ish yuritish o‘zbek tilida olib boriladi, agar mazkur xodimlar o‘zbek tili qonuniyatlaridan yaxshi xabardor bo‘lmasalar, ular ish vaqtlarining hammasini —100 foizini bu ishga sarflaganlarida ham, ijobiy natijaga erishish qiyin.

Har qanday hujjat muayyan axborotni u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur, bu tildir. Albatta, bunda til qonun-qoidalariga rioya qilish kerak. Hujjatlar matniga qo‘yiladigan eng muhim talablardan biri xolislikdir. Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd etuvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakllarini qo‘llashda muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish, erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, ko‘tarinki-tantanavor, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, istiora, tashxis kabi obrazli tafakkur ifodasi uchun xizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi. Ularning ishlatilishi hujjatlar matnidagi ifodaning noxolisligiga olib keladi.

Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlik kabi talablarga ham javob berishi kerak. Bu talablarga javob bera olmaydigan hujjat chinakam hujjat bo‘la olmaydi, bunday hujjat ish yuritishga xalaqit beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi. Hujjatlar matnining xolislik, aniqlik, ixchamlik, lo‘ndalik, mazmuniy to‘liqlikdan iborat zaruriy sifatleri hujjatchilik tilining o‘ziga xos uslubi, undagi o‘ziga xos so‘z qo‘llash, morfologiya va sintaksis orqali ta‘min etiladi.

O‘zbek hujjatchiligidagi chala, oqsoq o‘rinlardan biri ayrim hujjatlarning nomlanishi masalasidir. Bir necha tur hujjatlar rus tilida qanday nomlansa, o‘zbek tilida ham shundayligicha nomlab kelingan. Ish yuritish asosan rus tilida olib borilganligi uchun ham bunga ehtiyoj bo‘lmagan chog‘i. Bunday hol hujjatlarning nomlarida va shuningdek matnida ham ko‘p kuzatiladi. Ulkan rus munaqqidi V. G. Belinskiy shunday degan edi: «...Ruscha muqobili mavjud bo‘lgani holda chet so‘zni qo‘llash sog‘lom idrokni ham, sog‘lom didni ham haqorat qilish demakdir». O‘zbek tilida hozirgacha qo‘llanib kelinayotgan «spravka», «raport», «instruksiya», «akt», «xarakteristika» kabi ko‘plab hujjat nomlari shular jumlasidandir.

«Akt» shunday hujjatki, unda aniqlangan muayyan hodisa yoki biron bir faktning to‘g‘riligi tasdiqlanadi va bunga bir necha kishining guvohligi keltiriladi. Shunday ekan, bu hujjatni o‘zbek tilida «dalolatnoma» so‘zi bilan atash maqsadga muvofiq, bu so‘z mazkur hujjatning mohiyatini to‘g‘ri va to‘liq aks ettira oladi. Mazkur so‘zdagi «noma» qismi hujjatning yozma shaklda ekanligiga ishora qiladi. «Instruksiya» so‘zi o‘rnida o‘zbekcha «yo‘riqnoma» so‘zini bimalol ishlatish mumkin. Umuman, imkon bor bo‘lgan o‘rinlarda hujjat nomlarini o‘zbek tilida yasashda «noma» so‘zidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Hujjat nomlarini o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlari asosida shakllantira borish, hujjatchilikdagi so‘z va iboralarning o‘zbekcha muqobilini izlab topish va amaliyotga kiritish bugungi kunning talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. – T.: 2004
2. Abdusaidov A. Gazeta janrlarining til xususiyatlari. – T.: 2005



JOY NOMLARIDAGI LINGVISTIK XUSUSIYATLAR MAKKA SHAHRI MISOLIDA

Po'latova M.M

TDSHU, Sharq filologiyasi fakulteti,
Arab filologiyasi kafedrası 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada joy nomlari haqida qisqacha ma'lumot Makka shahri misolida keltirildi. Internetdagi ba'zi sahifalar va izlanuvchilarning fikri bilan mavzu boyitilib, Makka shahrining turli nomlari lingvistik jihatdan tahlil qilindi.

Tayanch so'zlar: Toponimiya, joy nomlari, Makka, lingvistika,

Izohli lug'atlarda joy nomi biror narsani aniqlash va uni boshqalaridan ajratib o'rganish uchun berilgan so'z sifatida ta'riflanadi. Geografik nomlarni o'rganish katta ahamiyatga ega bo'lgan ishdir. Joy nomlari hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olgan. U shaxsiy guvohnoma, passport, maktab va universitet guvohnomlari va boshqa shunga o'xshash narsalarda mavjud bo'lib, tug'ilgan yoki faoliyat olib boruvchi joy nomi haqida o'qiluvchiga muhim ma'lumot berish sifatida keltiriladi. Ommaviy axborot vositalarining voqea-hodisalarni xabarini berishda qo'llanadigan asosiy detallari ham joy nomlaridir. Talabalar tarix, geografiya va tilshunoslik fanlariga fanning bu tarmog'iga murojaaa etadilar, ularni tadqiq etadilar. Bu fan geografik nomlarning kelib chiqishi, ularning lingvistik manbalarini o'rganish jarayonida yo'qolib ketgan til, sivilizatsiyalarning tarixi, alodlarga yillar davomida ta'siri va boshqa ma'lumotlarni o'rganadilar.

Makka- lingvistik nazar jihatidan joy nomi, toponimdir. Bu shahar nomi bo'lib, payg'ambar Muhammad (s.a.v) tug'ilib-o'sgan, musulmonlar hayotlari davomida imkonlari boricha kamida bir marotaba ziyorat qilishi belgilangan Saudiya Qirolligida joylashgan shahardir. Lekin bu so'z boshqa majoziy ma'nolarni ham ifodalaydi. Bir qancha odamlar guruhini o'ziga jamlab, faoliyat yuritadigan markazlarni ham shu so'z bilan ifodalash uchrab turadi. Masalan, "Yangi ochilgan Moll haridorlarga makka bo'ldi", "Shahar turistlar uchun makkaga aylandi" kabi. Albatta, bunda Saudiyadagi ma'lum shahar nazarda tutilmayapti, Makka "so'zi gapda metafora tarzida qo'llanmoqda. Bu shakldagi qo'llanish, asosan, ingliz tilida ko'proq qo'llanmoqda. Bu hodisa ingliz iborolari qatorida qachondan boshlab yuritila boshlagan? Makka shahrining avvalgi nomi Bakka bo'lgan. Lekin hozirda bu nom Kaaba atrofidagi muqaddas joylarni bildiradi. Bu ikki nom etimologiyasi haqida hali uzil-kesil bir to'xtamga kelingan emas. Bu nom metafora sifatida eng avval 19-asrda tarixchi Eduard Beynes tomonidan tilshunoslik tarixida paydo bo'lgan. U o'zining "Fransuz inqilobi tarixi" kitobida 1817 yil *Britaniyaning West Indiya kompaniyasi* va Hindistondagi *Maratha imperiyasi* o'rtasidagi ziddiyatlarni yoritayotib shu shaklda keltirgan: "Polkovnik Harkort shunga mos ravishda hindularning makkasi hisoblanadigan Yagarnavtga yo'l oldi...". Bu kontekstda diniy iboralar mavjud, lekin u islomga ishora qilmayapti. O'zgina yillar o'tgach, bu metafora butunlay islomga bo'lgan ishorasini yo'qotdi. Albatta, asosan, ingliz lug'atida. Shuning uchun ham bu so'z o'xshatish ma'nosidagi so'z bo'lib kelganda, endi kichik harflar bilan yozila boshlandi.

Bu Makka toponimining etimologik xilma-xillikda qo'llanishi haqidagi kichik tarix desa ham bo'ladi.

Endi Makkani toponimiya sifatida o'rganadigan bo'lsak, bunda ham juda ko'p va turfa xil ma'lumot va manbalarga fuch kelishimiz mumkin. Yuqorida Makka shahrining yana Bakka deb ham atalganini keltirib o'tgan edik. Bu nomlar Kaaba joylashgan hududning eng mashhur nomlaridan bo'lib, olim va tafsirchilar bu ikki nomning qanday ma'no bildirishi haqida ihtilofli fikrlari mavjuddir. Ba'zi olimlar Makka- **مكة**, *ya'ni hushtak chalmoq*, degan ma'noni bildiruvchi o'zakdan yasalgan bo'lib, johiliyat davridagi arablar Kaabani tavof qilishda hushtak chalish ibodatlarining bir qismi hisoblanganligi tufayli paydo bo'lgan bo'lishi mumkin degan farazni ilgari suradilar. Yoki yana bir farazga ko'ra bu so'z chuqurlik degan ma'noni bildirib, Makka shahri ikki baland tog' orasida joylashganligi uchu ham shu nom bilan atalgan. Yana unda boylar ham, kambag'allar ham bo'ynini egib yig'lovchi muqaddas joy borligiga ishora sifatida, ma'nosi yig'lamoqni beruvchi **bakaa**— **بكا** fe'lini sabab qilib ko'rsatishadi. Makka va Bakka nomining ishlatilishida ham bir qator farqlar borligi aytiladi.

1. Makka shaharning nomi, Bakka esa uyning nomi.
2. Bakka deb bayt- Kaaba atrofi aytilsa, Makka deb Bakka atrofini o'rab olgan joylar



nomlanadi.

3. Bakka baytning va Kaaba joylashgan masjidning yana bir nomidir, Makka esa Fath surasida keltirilgan Makkaning ayni o'zidir.

Ba'zilar Bakka va Makka so'zlar asli bir xil va assimilyatsiya jarayonida Makkadagi **mim-مim** **baaga** baylangan deb hisoblashadi. Muqaddas shaharning boshqa nomlarini ham ko'rib chiqsak. **Ummul Quro-ام القرى** -Bu nom Qur'onda ham shu shaklda keltirilgan va undan hozirgi makka shahri anglashilgan: ((الْوَحْ نَمَوْ يَرْقُلْ اُمَّ اَرْدَنْتَلَوْ)) [92:م:عن اَل]. Bundan Makkaning Saudiyadagi eng e'tiborli joy ekani anglashiladi. Qur'onda, shuningdek, Bu hududning **Baladil amin, Balad, Baytul atiyq, Baytul harom** kabi nomlari ham mavjud. **Nasasa, Ros, Qodis, Albasita, Kavsa, Mazhab, Muqaddisa, Hasa, Ummu Rohma, Muaaz, Solaah, Alharam** kabi nomlari esa shu so'zlarning o'zaklari ma'nosiga ko'ra berilgan.

Xulosa qilib aytganda joy nomlarini o'rganish qadimiy yoki hozirgi xalqlarning tarixi, buguni va kelajagini o'rganishda muhim faoliyatdir. Maqolada toponimiyaning Makka shahri nomi misolida o'rganilishi tarixiy tilimiz va dinimizni tadqiq qilish jarayonidagi kichik debochadir. Bu mavzular hali ko'p o'rganilmagan va o'z tadqiq muddatini kutayotgan tarixning filologiya va jug'rofiya bilan bog'liq ko'rinishlari, ochilish kalitlaridir. Biz yashayotgan internet asrida joylar masofalari kamayganligi hisobiga yaqin kelajaklarda bu mavzu tadqiqida ko'p ishlar amalga oshiriladi, umid qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmonov A., Struktur tilshunoslik:ildizlari va yo'nalishlari.-Toshkent :Ta'lim, 2009
 2. Murad Hofmann., Journey to Makkah., Amana pubns., 1998
 3. Qorayev م. يزوتل, 1980
 4. 2017.- راثال انم اهيف عاج ام و قكم رابخا، دم ح انب ملل دب ع نب دم حم
 5. 1423، مك ح و لئاضف مارحل دلبل، يرقل اما عم اجب ني دل لوصا و قوع دل ا قئل
 6. Носирова М. Араб тилшунослиги тарихи. Ўқув –услугий қўлланма, Тошкент, 2010
 7. S., Toponimika.-T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006.
- <https://makkah-madinah.accor.com>
<https://مؤكز عوضوم>



ТУРКИЙШУНОСЛИҚДА ГАПНИНГ КОММУНИКАТИВ ТИПЛАРИ ИНТОНАЦИЯСИ ҲАҚИДА

М.Газиёва

кафедраси катта ўқитувчиси, ф.ф.б.ф.д

З.Раҳмонова

Фаргона давлат университети

кошидаги академик лицейнинг

Она тили ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада гапнинг коммуникатив типлари турколог олимларнинг қарашлари нутқайи назаридан ёритилган. Бугунги кунда интонация ва просодия масалаларига тўхталиб ўтилган.

Калит сўзлар: интонация, просодия, турколог, эксперимент, параметр.

Туркологияда интонация масалаларига бағишланган қатор тадқиқотлар кўзга ташланади. Бу борада гапнинг коммуникатив типлари интонациясига бағишланган А.У.Туркбенбаев, Ш.К.Калиев, И.Е.Алексеев, С.Куренов, А.Нурмухамедов, А.Сапаев, О.Д.Розиева, И.Чанаков, Ж.Дуйишев¹ларнинг ишларини кўрсатиш мумкин. Бу ишлар, асосан, тилшуносликнинг синтактик фонетика соҳасига бағишланганлиги ва улар интонографик методга асосланган экспериментал-фонетик тадқиқотлар эканлиги билан характерлидир. Ўтган асрнинг 60–80 йилларида амалга оширилган экспериментал-фонетик изланишларда қозоқ тилида содда гаплар, дарак гаплар интонацияси, ёқут тилида сўроқ гаплар, туркман тилида дарак ва сўроқ гаплар интонацияси, қирғиз тилида дарак ва сўроқ гаплар интонацияси каби гапнинг коммуникатив типларини фарқловчи интонация масалалари тадқиқ этилган. Албатта, экспериментал-фонетика соҳасида амалга оширилган юқоридаги тадқиқотлар ўз даврида махсус илмий лабораторияларда бажарилганлиги, лабораториялардаги интонологик асбоб-ускуналар нутқнинг акустик параметрларини кўрсатиш учун хизмат қилганлиги, олинган илмий хулосалар туркологияда шу соҳадаги назарияларнинг яратилишига асос бўлганлигидан далолатдир. Бироқ шу соҳадаги ишлар билан танишиш жараёнида нутқнинг просодик структураси бўйича олиб борилган экспериментлар натижасида олинган айрим хулосаларда изчиллик етишмаётганлиги кузатилди. Булар, биринчидан, мелодик ҳаракатнинг айрим параметрларини кўрсатувчи диаграммалар қўлда чизилгани сабабли кўзга аниқ ташланмайди. Иккинчидан, эксперимент жараёнида интонация компонентларининг ҳаракати визуал тасвирга эга эмас. Учинчидан, нутқ ёки нутқ парчаси экспериментда сўзларнинг ўрни просодик воситаларни кўрсатувчи диаграммаларда акс этмайди. Шундай бўлишига қарамадан, просодик воситалар ёки интонация компонентлари юзасидан ўтказилган экспериментал-фонетик тажрибалар шу соҳадаги адабиётларни яратиш учун илмий-назарий манба сифатида хизмат қилиб келди.

Бугунги кунда ҳам туркологияда интонация ва просодия муаммоси энг муҳим масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Бу борада Х.Х.Салимов²нинг татар тили просодик системаси тадқиқи бағишланган докторлик диссертацияси аҳамиятли. Унда дастлаб просодия ва интонация атамаларига лингвистик изоҳлар берилади. Сўнг шу соҳанинг рус тилшунослигидаги йирик вакиллари В.А.Артемов, Ю.А.Дубовский, Л.П.Блохина, Р.К.Потапова, Н.Д.Светазарованинг ишларига муносабат билдирилади. Айни пайтда рус, инглиз, немис

¹ Туркбенбаев А.У. Интонация простых вопросительных предложений в казахском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1966; Калиев Ж.К. К вопросу об интонации повествовательной фразы в казахском языке. – В кн.: Фонетика казахского языка. – Алма-Ата, 1969 – С.101-107; Алексеев И.Е. Вопросительные предложения в якутском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1983; Куренов С., Нурмухамедов А., Сапаев А. Туркмен дилинде йўнекей хабар ве сораг созлемелеренин интонациясы. – Ашгабат, 1975; Розиева О.Д. Интонация повествовательного предложения в современном туркменском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ашхабад, 1975; Дуйишев Ж. Интонация повествовательного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1975; Чанаков И. Интонация вопросительного предложения в киргизском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1980.

² Салимов Х.Х. Просодическая система татарского языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Елабуга, 1999. // www.dissercat.com. (мурожаат санаси: 1.08.2018.)



тиллариининг просодик қурилиши билан боғлиқ қиёсий-типологик аспектда амалга оширилган ишларга алоҳида эътибор қаратилади. Просодиканинг асосий тон частотаси, чўзиқлик, интенсивлик, тембр ва паузани қамраб олиши таъкидланиб, бу воситаларнинг функционал хусусиятлари кўрсатиб ўтилади. Бу ишда таъкидланишича, просодика соҳасида олиб борилаётган тадқиқотларда қозоқ ва озарбайжон олимлари етакчилик қилмоқдалар.

Қозоқ тилшуноси З.М.Базарбаеванинг мақоласи¹ интонациянинг прагматик хусусиятларини ўрганишга қаратилганлиги билан ажралиб туради. Олиманинг кузатишларида интонация оғзаки нутқни шакллантирувчи восита сифатида эътироф этилиб, у орқали ифоданинг коммуникатив-прагматик ва эмоционал-экспрессив хусусиятлари очиб берилади. Нутқ товушлари ва интонация асосий тон частотаси, чўзиқлик ва интенсивлик каби акустик параметрлари ёрдамида коммуникатив функция бажаради. Оғзаки нутқда интонацион ва просодик компонентлар орқали ифодаланган маъно ва оттенкалар ёзма нутқда тиниш белгилари орқали ажратилади. Бу ишда просодик воситаларнинг прагматик хусусиятларини кўрсатишда гапнинг актуал бўлиниши назарияси масалаларига ҳам алоҳида эътибор қаратилади.

Ўзбек тилшунослигида фонетика ва фонология соҳасида бир қатор тадқиқотлар² амалга оширилган бўлиб, уларнинг аксарияти сегмент фонетика масалаларига бағишланганлиги билан характерлидир. Профессор А.Ғуломов[29] ўзбек тилшунослигида биринчилардан бўлиб просодика соҳасига оид масалаларни субъектив метод ёрдамида ўрганган олимлардан бири ҳисобланади. Ўзбек тилшунослигида просодика ва интонация масалаларига бағишланган экспериментал-фонетик тадқиқотлар бармоқ билан санарлидир. Бундай изланишлар А.Маҳмудов, Д.Ниёзов, Ҳ.Йўлдошева, М.Юсупова, Н.Ҳайитметов, У.Тўйчиев, М.Миртожиев³ каби олимларнинг илмий фаолиятида кўзга ташланади. Просодика соҳасидаги бу экспериментал-фонетик тадқиқотлар бундан 40–50 йил олдин яратилган ускуна ва жиҳозлар ёрдамида амалга оширилган. Бироқ олинган илмий хулосалардан бугунги кунга қадар фойдаланиб келинмоқда. Бу ҳам соҳадаги экспериментал тадқиқотларга эҳтиёж катталигидан далолат беради.

¹ Базарбаева З.М. Исследование интонации в прагмалингвистическом аспекте // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – № 3, 2015. – С. 114-118.

² Нурмонов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990; Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

³ Маҳмудов А. Словесные ударения в узбекском языке – Ташкент: Фан, 1960; Ниязов Д.М. Интонация повествования в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1969; Юлдашева Х. Интонация вопросительных фраз современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1988; Юсупова М. Ўзбек тилида синтагманинг интонацион хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1979. – 1-сон. – Б. 78-82; Ҳайитметов Н. Алишер Навоий ғазалларида мантик урғусининг берилиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1989; Тўйчиев У. Ўзбек арузини экспериментал фонетика усули билан текшириш // Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 1993. – 4-сон. – Б. 13-21; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 424 б.

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(7-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
